
Shahar hokimi fuqarolarning murojaatlarini qabuldan so'ng joyiga borib o'rgandi.

Kecha viloyat hokimi tomonidan o'tkazilgan qabulda "Nafosat" mahallasida yashovchi fuqarolarning Tashabbus ko'chasini mahalla markaziga bog'lovchi yo'lakni kengaytirish bo'yicha qilgan murojaatlari shahar hokimi Vosiljon Nazarov va mas'ullar ishtirokida o'rganildi.

Mazkur murojaat ijobiy hal etildi. Fuqaro roziligi bilan ertadan boshlab bilan yo'lakning bir tomonidagi devor buzilishi, hokimlik tomonidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga yangidan qurilishi belgilandi.

Shahar hokimi tomonidan bugun o'tkazilgan sayyor qabulda esa "Muravvat" MFY Farg'ona ko'chasidagi 61-ko'p qavatli uyda yashovchi fuqarolar tomonidan ham shart-sharoitlarni yaxshilash bo'yicha murojaat tushdi. Qabulda fuqarolarning uyning holati bo'yicha bildirgan fikrlari eshilib, bu masala ham joyida o'rganildi.

Davlat yotoqxonasi joylashgan 61-uyda 52 ta oilada 170 nafarga yaqin fuqarolar yashaydi. Ishchi guruhi tomonidan ko'p qavatli uydagi fuqarolarga yaratilgan sharoitlar to'liq o'rganildi. O'rganish xulosasiga ko'ra u yerda suv, elektr, kanalizatsiya tarmoqlarini yangilash, yangi eshik va romlarni o'rnatish ishlarini boshlash bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berildi.

Har ikki murojaatni ijobiy hal etish maqsadida belgilangan tartib bo'yicha ish olib borish yuzasidan shtab tashkillanib, unga uy-joy bo'limi boshlig'i Rafiqjon Marasulov rahbar etib tayinlandi. Mazkur murojaatlarning ijobiy hal etilganligi bo'yicha yana batafsil ma'lumot beramiz.

2022-06-22 14:52:17